

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

P.S.Otaqulov	
Geografik nomlarni o'rganishga ijtimoiy-ekologik yondashuv	92
B.M.Dehqonov	
Andijon viloyati ekin yerlari monitoringi va uni baholash	97
X.Sh.Djo'raboyeva	
An'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining shakllanishida geografik omillarning o'rni.....	101
	ILMIY AXBOROT
M.K.Usmonaliyeva	
Chor Rossiyasi hukmronligi davrida turkiston o'lkasida milliy matbuotning vujudga kelishi.....	105
O.N.Fozilova	
Oybekning bolalarga atalgan hikoyalarida qahramon talqini.....	108
J.J.Mamatisakov	
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni takomillashtirishning innovatsion - pedagogik modeli	113
N.B.Yuldasheva	
Ingliz va o'zbek tillari matnlaridagi paremiyalarni tadqiq etishning muxim jihatlari.....	121
G.O.Abdujalilova	
Ekspozitsiya va uning badiiy-estetik funksiyasi	124
X.Z.Umarova	
Epistolary lines: the transformative power of letters in saul bellow's novel «Herzog»	127
D.Hakimova	
Yosh voleybolchilarning maxsus jismoniy sifatlarini rivojlantirish	130
G'.M.Alamov	
Xalq o'yinlari va milliy bellashuvlarning o'quvchi-yoshlarni tarbiyalovchi muhim omil sifatidagi ahamiyati	135
A.K.Xudayberdiyev, M.J.Usmonova	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yagona to'g'ri yo'li-ta'lim sifatini oshirish.....	139
S.R.Xoliqov	
Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'naviyati va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy usullari	143
M.A.Алиева	
Неомифологизм в творчестве дмитрия сергеевича мерещковского	147
A.Y.Ergashev	
Yangi O'zbekistonda pedagogning maqomi: ijimoiy-falsafiy tasnifi va o'ziga xos xususiyatlari	152
Z.X.Oxunova	
Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo tushunchalarining o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy-antropologik mazmuni	155
X.J.Isomiddinov	
Yoshlar tafakkurini rivojlantirishning tarixiy-falsafiy jihatlari.....	158
R.D.Mustayev	
Vatanparvarlik tushunchasining tarixiy-falsafiy mohiyati	161
B.I.Muxtoraliev	
Ilk hikoyalaridagi ijodiy o'ziga xoslik	165
D.S.Abdugodirov	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	171
M.M.Azizov	
Methodology of optimizing sports and health programs through scandinavian walking	174
A.U.Xamidjanov	
Yuqori malakali kurashchilarni vazn-bo'y ko'rsatkichlarini model xususiyatlari o'rganish asosida yosh erkin kurashchilarni saralash va yo'naltirish metodikasi.....	181
G.T.Dadamirzayeva	
Inson salomatligi va ruhiyatiga musiqaning ta'siri.....	191

BO'LAJAK GEOGRAFIYA O'QITUVCHILARINI O'QUVCHILARDA GEOLOGIK BILIMLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION - PEDAGOGIK MODEL**ИННОВАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ГЕОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ У СТУДЕНТОВ, БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ГЕОГРАФИИ****INNOVATIVE - PEDAGOGICAL MODEL OF GEOLOGICAL KNOWLEDGE IMPROVEMENT IN STUDENTS OF FUTURE GEOGRAPHY TEACHERS****Mamatisakov Jaxongirmirzo Jamoliddin o'g'li¹**¹Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti**Annotatsiya**

Ushbu maqolada bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni takomillashtirishning zamonaviy modeli keltirib o'tilgan. Shuningdek, bo'lajak fan o'qituvchilarining uzluksiz ta'lim tizimidagi muammolarni bilishlari va ularni bartaraf etishning ilmiy yechimlarini tahlil qilingan. Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilari o'quvchilarni qanday qilib tabiiy-geografik qiziqishlarini so'ndirmagan holda ularni faollashtirishlari mumkin. Bu albatta, bugungi kunda geograf o'qituvchi-pedagoglarni qiziqitmasdan qolmaydi. O'qituvchining metodik tayyorgarligi o'quvchilarning kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish hayoti davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish zarur hisoblanadi.

Аннотация

В данной статье представлена современная модель совершенствования геологических знаний у будущих учителей географии. Также были проанализированы знания будущих учителей естественных наук о проблемах в системе непрерывного образования и научных решениях по их устранению. Как будущие учителя географии могут активизировать учащихся, не погасая при этом их естественно-географического интереса. Это, конечно, не вызывает интереса у учителей-педагогов географии и сегодня. Методическая подготовка преподавателя считается необходимой для развития творческих способностей учащихся, самостоятельной учебы и регулярного совершенствования познавательных навыков и жизненного опыта.

Abstract

This article presents an innovative and pedagogical model for improving the geological knowledge of future geography teachers in students. Also, the knowledge of future science teachers about the problems in the system of continuing education and scientific solutions to their elimination was analyzed. Future geography teachers can activate students in a way that does not satisfy their natural-geographical interests. This, of course, does not remain without the interest of Geographers-teachers today. Methodological training of the teacher it is necessary to regularly increase the skills of independent reading and learning, cognitivism and life experience during the life of the development of students' creativity abilities.

Kalit so'zlar: innovatsion – pedagogik model, metodika, integratsiya, pedagog, pedagogik mahorat, geologik ta'lim.

Ключевые слова: инновационно-педагогическая модель, методика, интеграция, педагог, педагогическое мастерство, геологическое образование.

Key words: innovative-pedagogical model, methodology, integration, pedagogical, pedagogical skill, Geological education.

KIRISH

Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini integrallashgan metodik faoliyatga tayyorlashda ularning umummadaniy salohiyati, mutaxassislik bilimlari hamda shaxsiy fazilatlarini shakllanishida uyg'unlikka erishish taqozo qilinadi. Shu bois o'quv rejalarida ko'zda tutilgan barcha bilimlarga oid fanlarning integratsiyalashuv zarurati yuzaga keladi. Demak, integrallashgan metodik faoliyatni o'qitishda fanlararo aloqalarni mustahkamlashga asoslanadi. Talabalarning fanlarni o'zlashtirishida mustaqil fikrlashi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida yangi pedagogik texnologiyalar, o'qitishning interfaol usullaridan foydalanishning ahamiyati kattadir. Binobarin, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim hamkorlik pedagogikasi, kichik guruhlarda ishlash usullari ta'sirida yaxshi samara berishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Innovatsion jarayonlar ta'siri ijtimoiy taraqqiyotda kun sayin ortib bormoqda. Barcha zamonlarda bilimlar insoniyat tomonidan yuqori baholangan, jamiyat va insonda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishning asosi hisoblanib kelgan va innovatsion metodik faoliyat samaradorligini


yuksaltirishga xizmat qilgan. Zero, "taraqqiy etgan mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy hayoti ko'rsatadiki, bugun bilimlar investitsiyasi rivojlanib, asosiy fondlarga nisbatan ustuvor o'rin tutmoqda [1].

Mamlakatimizda geologik ta'limni rivojlantirish uchun xizmat qiladigan bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion metodik faoliyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilganligi bejiz emas. So'ngi yillarda olib borilayotgan ta'limiy islohotlar asosida ta'lim muassasalari moddiy-texnika va o'quv-uslubiy bazasini rivojlantirishda umumta'lim maktablari, akademik litseylar va oliy ta'lim muassasalari uchun yangi avlod darsliklarini yaratish masalasi ijobiy hal etilmoqda, dasturida belgilangan respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirish qo'mitasi huzurida innovatsion texnologiyalar sohasida ilmiy va amaliy tadqiqotlarni rag'batlantirish jamg'armasini tuzish bu soha samaradorligini oshirishga qaratilgandir.

Shuningdek, metodik tayyorgarlik ham ijodiy jarayon bo'lganligi bois, yangilikni yaratuvchi va uning natijasiga erishishni o'ziga maqsad qilib olgan ijodkor pedagogning faoliyatida ham uning ma'naviy borlig'ida mujassam bo'lgan qadriyatlar, bilimlar va qobiliyatlarning nomoyon bo'lishini taqazo etadi. Alohida shaxs tomonidan yakka tartibda yuritiladigan innovatsion metodik faoliyat jarayonida bunday salohiyat shaxsning individual fazilatlari, bilim, ko'nikma, malakalari va iste'dod va iqtidori sifatida jamoa miqyosida yoki ommaviy miqyosda amalga oshiriladigan faoliyat asnosida ijtimoiy-madaniy qadriyatlar majmui ko'rinishida yuzaga chiqariladi [5]. Ma'lumki, geografiya ta'limi metodikasining mohiyatini aks ettiruvchi bir necha umumiy tushunchalar ma'lum kategoriyalarga mansubdir. Ular ilmiy geografik bilimlarning bir butun tizimini shakllantiruvchi yetakchilik vazifasini bajaradi [2]. Masalan, geologiya fanini o'qitishda metodik ishlanmalar yaratish bo'yicha innovatsion faoliyat olib borayotgan ijodkor-pedagog shu fan sohasida iqtidorga ega bo'lgan taqdiridagina yaratilayotgan yangilikning tegishli mazmuni, uni o'qitish tamoyillari, shu fan uchun xos bo'lgan tashkiliy shakllarga mos ekanligidan kelib chiqqan holda tegishli jihozni yaratish va undan foydalanishga oid texnik, texnologik talablarni aniqlashda shu fanni o'qitish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan didaktik tamoyillarga asoslangan holda ish yuritish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday yo'l bilan yaratilgan o'quv jihozi yoki metodika shu fan bo'yicha faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglar tomonidan ham ijobiy qabul qilinadi [4].

NATIJAR VA MUHOKAMA

Geografik bilimlar tizimi talabalarda boshlang'ich geologik bilimlar bilan ishlash kompetensiyasi asosida ta'lim olishni ta'minlaydi. Biroq oliy ta'lim geografiya yo'nalishida o'quvchilarga geologik bilimlar berib borsada ularning geologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi hali o'z yechimini topgan emas. Uzluksiz ta'lim jarayonini modernizatsiyalash jarayonida fan o'qituvchilari o'quv amaliyotida o'quvchilar bilimlarini mustaqil o'zlashtirishga harakat qiladi. Bu esa amaliy bilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirish, muammolarni osongina echishga asos bo'ladi. Bugungi kunga kelib, o'qituvchilar diqqat-e'tiborini o'quvchilarning bilish faolligini ta'minlashning innovatsion metodlariga qaratish alohida ahamiyat kasb etmoqda.



1-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasi asosida rivojlantirish modeli

1-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasi asosida rivojlantirish modeli

Faylasuf, psixolog va pedagoglarning (V.V.Davidov, Yu.G.Tatur, V.V.Kraevskiy va boshq.) tadqiqot ishlariga ko'ra, pedagogik tizimlar ijtimoiy tuzilmalarga xos bo'lib, ular quyidagi muhim belgilar: maqsad, umumiy qonuniyatlar va o'zaro real aloqalar mavjudligi bilan tavsiflanadi [3].

Pedagogik model va ayniqsa, ta'lim jarayoni modeli umumiy o'quv maqsadlar asosida xususiy o'quv maqsadlarga erishish uchun aniq o'quv faoliyatlarini va ularning bajarish va natijalari ketma-ketligi dasturlashtiradi. Bugungi kunga kelib, o'qituvchilar diqqat-e'tiborini o'quvchilarning bilish faolligini ta'minlashning innovatsion metodlariga qaratish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shaxsga

yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'quvchi va o'qituvchi axborot texnologiyalaridan unumli foydalansalar, ularning aqliy faolliklari jadallashib, subyekt doirasi kengayadi. Metodik tizim modeli – o'quv jarayonini metodlar, shakllar, rejalashtirishi vositalari, tashkil etish, o'qitish, o'rganish, tahlil etish va takomillashtirishdan iborat o'zaro uzviy bog'liq, bir-birini taqozo etuvchi komponentlar majmuidan iborat.

Ta'limning metodik tizimi – o'quvchilarning ta'lim olish samaradorligiga qaratilgan o'quv jarayonini tashkil etish, o'qitish, o'rganish, tahlil etish va takomillashtirishdan iborat o'zaro uzviy bog'liq, tartiblangan va bir-birini taqozo qiluvchi metodlar, shakllar, rejalashtirishi vositalaridan iborat.

Mazkur metodik modelda biz geologik ta'lim jarayonini bir butun jarayon sifatida qarab, bu jarayonda o'qituvchi va o'quvchi o'zaro faoliyatini alohida faoliyat turi ekanligini e'tiborga olib, jarayonda ta'lim vositalarining muhim o'rnini ko'rsatib, bu o'rinda o'qituvchining jarayonni loyihalovchi, boshqaruvchi va amalga oshiruvchi sifatida o'quvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishi hamda ularda geologik bilimlarini shakllanishini ta'minlovchi tarkibiy qismlarini o'zaro biriktirdik.

Ushbu modelda bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni shakllantirishda quyidagi vazifalar belgilandi:

- geologik bilimlarni rivojlantiruvchi motivlarni joriy etish
- dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar integratsiyasini ta'minlash
- innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish
- geologik bilimlarni rivojlantirish samaradorligini baholash mexanizmlarini takomillashtirish va boshqalar.

Baholash va natijaviy komponentda o'quvchilarning geologik bilimlar olishiga motivatsiyasining oshishi va o'quvchilar geologik bilimlari shakllanganligi darajalari adaptiv (past), reproduktiv (o'rta), kreativ (yuqori) darajalar belgilandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'qituvchining metodik tayyorgarligining yuqori darajasi o'quvchilarni tafakkurini o'stirishi, innovatsion fikrlash tarzini shakllantirishi, ularni mustaqil fikrlashga, kreativ yondashuvga o'rgata olishlarida namoyon bo'ladi. Ma'lumki, fikrlash - biror masala yechimini izlash, qandaydir savolga javob topish jarayonidir. Ammo har qanday savol yoki topshiriq ham fikr mustaqilligi va faolligini talab qilavermaydi. O'quvchi tafakkuri mustaqilligini faollashtirishning birinchi sharti uning oldiga chigal masala qo'yishdir. Masalaning o'quvchi oldiga qanday shaklda qo'yilishi, uning yechimiga bo'lgan qiziqishi, asosiy muammoni anglashi juda muhim. O'quvchining tafakkuri hamisha ma'lum maqsadga qaratiladi. Maqsadni anglash bilan tafakkur jarayonining ixtiyoriy zo'riqishi, ya'ni insonning oldiga qo'yilgan maqsadga erishish istagi qancha kuchli bo'lsa, yechim shuncha ta'minlangan bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Вахобов Х. ва бошқалар. География таълимида қўлланиладиган педагогик технологияларни ишлаб чиқиш // Халқ таълими. – Тошкент, 2007. –1-сон. – Б. 102-105.
2. Саушкин Ю.Г. Географическое мышление. – М.: Ойкумена, 2011.
3. Гуревич П. С. Психология и педагогика. Учебник и практикум для академического бакалавриата. Учебник. – М.: Юрайт, 2019. – 43 с.
4. Perramond, Moseley, William G.; Eric; Hapke, Holly M.; (2014). An Introduction to Human-Environment Geography. Wiley Blackwell. – P. 26–27
5. Jackson P., Thinking Geographically. Geography (2006) – P. 199-204.